

OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA

KIRUVCHILAR UCHUN

"XORAZM ILM ZIYO" NTM

+998995607273 raqamiga SMS yuboring.	3351HIFL* Familiya Ism (Viloyat) *JAVOBLAR
Namuna: 3351HIFL*Boltayev Anvar (Qashqadaryo)*BAADACCCAACA...	
Izoh:	
1) Agar sizni ism familiyagizda yoki viloyatingiz nomida O',G' harflari qatnashsa ularni o'rniga U va G harflarini ishlating.	
2) Harflarni faqat lotin alifbosida yozing.	
3) Repetitsion testlar faqat ko'rsatilgan sanalar uchun yaroqli. 8.07.2019-10.07.2019	
4) Repetitsion testning sms javoblari soat 21:00 gacha qabul qilinadi.	
Natijalar: Har kuni @repetitsiontestuz kanalida soat 22:00 e'lon qilinadi	

SAVOLLAR KITOBI

999986

BLOKLAR:

Matematika (3.1)

Fizika (2.1)

Ona tili va adabiyoti (1.1)

Test topshiruvchi:

F.I.O.

IMZO


DIQQAT!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha savollar soni to'liqligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'idagi "savollar kitobi raqami" bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida va javoblar varag'ida test topshiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi to'ldirilganligiga va imzosi qo'yilganligiga e'tibor qarating!

MATEMATIKA

1. Agar a natural sonni 49 ga bo'lganda bo'linma n , qoldiq n^2 ga teng bo'lsa, a sonining eng katta qiymatini toping.
A) 270 B) 330 C) 392 D) 212
2. Hisoblang. $\frac{1 \cdot 2 \cdot 3 + 3 \cdot 6 \cdot 9 + 5 \cdot 10 \cdot 15 + 7 \cdot 14 \cdot 21}{2 \cdot 4 \cdot 6 + 6 \cdot 12 \cdot 18 + 10 \cdot 20 \cdot 30 + 14 \cdot 28 \cdot 42}$
A) $\frac{1}{4}$ B) $\frac{1}{2}$ C) $\frac{1}{8}$ D) $\frac{1}{16}$
3. Agar $\sqrt{\frac{2}{\sqrt{7} + \sqrt{5}} - \frac{3}{\sqrt{7} - 2}} + a + 1$ ifodani qiymati 0 ga teng bo'lsa, a ni toping.
A) $1 + \sqrt{5}$ B) $1 - \sqrt{5}$
C) $\sqrt{1 + \sqrt{5}}$ D) $\sqrt{5} - 1$
4. Agar $x < -2$ bo'lsa, $\sqrt{x^2 + 6x + 1 + \sqrt{9 - 12x + 4x^2}}$ ifodani soddalashtiring.
A) $-2x$ B) $2 + x$ C) $-2 - x$ D) $2 - x$
5. Axmad bir kun, Arslon ikki kun ishlaganda bir ishning $\frac{3}{8}$ qismini bajarishadi. Agar Axmad uch kun, Arslon ikki kun ishlasa, aynan shu ishning $\frac{5}{8}$ qismini bajarishadi. Axmad bir o'zi ushbu ishni necha kunda tamomlaydi?
A) 4 B) 8 C) 9 D) 10
6. Agar $x^2 - 7x + 4 = 0$ bo'lsa, $x^2 + \frac{16}{x^2}$ ning son qiymatini toping.
A) 38 B) 20 C) 41 D) 57
7. $x^2 + 5x + 3 \leq 0$ tengsizlikning barcha butun yechimlari yig'indisini toping.
A) -14 B) -10 C) -13 D) -15
8. 1;8;27;64;125;.... ketma-ketlikning 10-hadini toping.
A) 1331 B) 512 C) 729 D) 1000
9. $tg200^\circ - 4 \cos 250^\circ$ ifodani qiymatini toping.
A) $-\frac{\sqrt{3}}{3}$ B) $\sqrt{3}$ C) $-\sqrt{3}$ D) $\frac{\sqrt{3}}{3}$
10. $\sin(\pi - x) - \cos\left(\frac{\pi}{2} + x\right) = \sqrt{3}$ tenglamaning $[-2\pi; 2\pi]$ oraliqqa tegishli ildizlari soni nechta?
A) 4 B) 3 C) 1 D) 2
11. Chizmada $[-5; 4]$ kesmada berilgan $y = g(x)$ funksiya grafigi tasvirlangan. $g(x) \geq x$ tengsizlikni qanoatlantiradigan x ning barcha qiymatlarini toping.



- A) $[-5; -2] \cup [3; 4]$ B) $[-2; 3]$

C) $[-4; -2] \cup [3; 4]$ D) $[-5; -3] \cup [2; 4]$

12. $y = \cos^2\left(\frac{x}{2} - \frac{\pi}{4}\right) + 2ctgx$ funksiyaning eng kichik musbat davrini toping.
A) 6π B) davriy emas C) 3π D) 2π
13. $\frac{(4^x - 2^5) \cdot (3^x - 9^7)}{(2x - 5) \cdot (9x - 7)} = 0$ tenglamaning ildizi 42 dan necha marta kam?
A) 7 B) 4 C) 14 D) 3
14. Agar $\log_a b = 29$ bo'lsa, $\log_a \sqrt[6]{ab}$ ning qiymatini toping.
A) 5 B) 4 C) 3 D) 2
15. Agar $-3 < \log_{0,5} a < -2$ va $2 < \log_{0,5} b < 4$ bo'lsa, $a \cdot b$ ning qabul qilishi mumkin bo'lgan barcha qiymatlarini toping.
A) (1; 3) B) (0,25; 4)
C) (0,25; 2) D) (2; 4)
16. $y = f(x)$ funksiyaning $(-2; 10)$ nuqtasidan o'tkazilgan urinma koordinatalar boshidan o'tadi. Shu funksiyaning $x_0 = -2$ nuqtadagi hosilasini toping.
A) -5 B) 5 C) -20 D) 20
17. $\int_{-2\pi}^{\pi} \sin 2x dx$ integralni hisoblang.
A) 1 B) 0 C) 2 D) -1
18. Ikkita katetdan teng uzoqlikda joylashgan hamda gipotenuzada yotgan nuqta gipotenuzani 20 va 30 sm uzunlikdagi kesmalarga ajratadi. Uchburchakning katta katetini toping.
A) $\frac{150}{\sqrt{26}}$ sm B) $\frac{75}{\sqrt{26}}$ sm
C) $\frac{75}{\sqrt{13}}$ sm D) $\frac{150}{\sqrt{13}}$ sm
19. Teng yonli $ABCD$ trapetsiyada AC diagonal CD tomonga perpendikulyar. Agar $AD = 4$, $|AB|^2 + |BC|^2 = 11$ bo'lsa, $|AB|$ ni toping.
A) $\sqrt{2}$ B) 3 C) 1,5 D) 2
20. ABC uchburchakda $AB = 5$, $BC = 6$ va $CA = 7$ bo'lsin. Unga ichki chizilgan aylanaga AC tomonga parallel qilib o'tkazilgan urinma ABC uchburchakdan BMN uchburchak ajratadi. BMN uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusining ABC uchburchakka ichki chizilgan aylana radiusiga nisbatini toping.
A) $\frac{1}{3}$ B) $\frac{2}{9}$ C) $\frac{5}{18}$ D) $\frac{7}{18}$
21. $(2; 2)$ nuqtani koordinata boshi atrofida -90° burchakka burilganda qaysi nuqtaga o'tadi?
A) $(0; 2\sqrt{2})$ B) $(2; 0)$
C) $(2; -2)$ D) $(0; 2)$
22. O'lchamlari $40 \times 40 \times 5$ sm bo'lgan to'g'ri burchakli parallelepiped shaklidagi mis g'olasidan qalinligi 1 mm bo'lgan tunuka taxtasi tayyorlandi. Bu tunuka taxtaning yuzini toping.


- A) $80 m^2$ B) $0,8 m^2$ C) $8 m^2$ D) $80 sm^2$
23. Qirrası 50 sm ga teng kubning ichini qirrası 5 sm ga teng kubchalardan nechitasi bilan to'ldirish mumkin?
A) 200 B) 1000 C) 2000 D) 100
24. Agar $A \cap B = \{b, c, d\}$ va $A \cap C = \{b, d\}$ bo'lsa, $A \cap (B \cup C)$ to'plam elementlarini toping.
A) $\{c, d\}$ B) $\{c\}$ C) $\{b, c, d\}$ D) $\{b\}$
25. Quyida keltirilgan tasdiqlardan qaysilari to'g'ri?
1) har qanday uchburchakka ichki chizilgan aylana markazi uchburchak bissektrisalarining kesishish nuqtasida bo'ladi;
2) har qanday uchburchakka tashqi chizilgan aylana markazi, uchburchak tomonlarining o'rta nuqtalaridan tomonlariga o'tkazilgan perpendikulyarning kesishish nuqtasida bo'ladi; 3) uchburchakning o'rta chizig'i asosiga parallel bo'lmasligi ham mumkin.
A) 1; 2 B) 1; 3 C) 1; 2; 3 D) 2; 3
26. Qanday teng yordamida HTML hujjatlarida hujjatning biror joydan boshqa joyiga o'tish yoki boshqa hujjatga o'tish mumkin?
A) $\langle U \rangle$ B) $\langle B \rangle$ C) $\langle I \rangle$ D) $\langle A \rangle$
27. Tenglik o'rinni bo'lishi uchun sonlarning asosi qanday bo'lishi kerak.
 $5_{(x)} * 4_{(x)} = 32_{(x)}$.
A) Yettilik B) Sakkizlik
C) To'qqizlik D) Oltilik
28. MS EXCEL .A1=2; A2=-18; A3=15 ga teng bo'lsa, ... (A1;A3 +A2)=0,125 tenglik o'rinni bo'lishi uchun nuqtalar o'rniga qaysi funktsiya qollangan bo'lishi kerak?
A) CTEПEHH B) CP3HAY C) CYMM D) OCTAT
29. HTML teglari necha turga bo'linadi?
A) 2 turga: juft va juft emas teglar
B) 2 turga: uzun va qisqa teglar
C) 3 turga: ochiq, yopiq va ichma - ichma teglar
D) 2 turga: sodda va murakkab teglar
30. Paskal.Quyidagi dasturning ekrandagi natijasini aniqlang. var a,b,s:integer;
begin a:=2; s:=0; for b:=-10 to 6 do
s:=s+a*b; writeln (s); end .
A) -52 B) -60 C) -68 D) -54

FIZIKA

31. Liftda joylashgan qiya tekislik ustida m massali brusok turibdi. Agar lift a tezlanish bilan yuqoriga ko'tarilsa, brusokning qiya tekislikka ko'rsatadigan normal bosim kuchini aniqlang. g-erkin tushish tezlanishi.
A) $mg \cos a$. B) $m(g + a) \sin a$.
C) $mg \cos a$. D) $m(g + a) \cos a$.
32. Ishqalanish koeffitsiyenti 0,05 bo'lgan relsda turgan 50 t massali vagon tekis tezlanuvchan harakatlanib, 25 m ni 50 s da o'tishi uchun unga qanday kuch kerak (kN)? $g=10$ N/kg.
A) 25. B) 30. C) 24. D) 26.
33. Lift shiftiga osilgan dinamometrda 90 N og'irlikka ega bo'lgan yuk osilgan. Lift harakatga kelganda dinamometr ko'rsatkichi 90 N dan 84 N gacha kamaydi. Lift qanday harakatlanmoqda? $g=10$ N/kg.
A) $3,5 m/s^2$ tezlanish bilan pastga.


- B) $3,5 m/s^2$ tezlanish bilan yuqoriga.
C) $2/3 m/s^2$ tezlanish bilan pastga.
D) $4 m/s^2$ tezlanish bilan yuqoriga.

34. Bir xil 2 nC dan elektr zaryadiga ega bo'lgan, radiuslari 2 cm va 4 cm ga teng bo'lgan metall sharlar bir-biriga tekizilsa, ularning o'zaro elektr ta'sir potensial energiyasi qanday o'zgaradi?
A) 10/9 marta ortadi. B) 2,25 marta ortadi.
C) 9/8 marta kamayadi. D) o'zgarmaydi.
35. Rasmdagi kvadratlarining tomoni 1 m ga teng. 1- va 4-nuqtalarda mos ravishda 0,2 mC va 0,4 mC zaryadlar joylashgan bo'lsa, ular orasidagi ta'sirlashish kuchi nimaga teng (N)?



- A) 14. B) 80. C) 20. D) 30.


36. Jism bosib o'tgan yo'lining vaqtga bog'lanish grafigi paraboladan iborat. Jismning tezlanish modulini toping (m/s^2).



- A) 3. B) 2. C) 4. D) 7.

37. Qanday shartlar bajarilganda moddiy nuqta aylana bo'ylab tekis harakatni namoyon etadi? a_n -normal tezlanish, a_τ -tangensial tezlanish.
A) $a_n=0$, $a_\tau=const < 0$. B) $a_n=const$, $a_\tau=0$.
C) $a_n=0$, $a_\tau=0$. D) $a_n=0$, $a_\tau=const \leq 0$.
38. Qanday shartlar bajarilganda moddiy nuqta to'g'ri chizikli tekis harakatni namoyon etadi? a_n -normal tezlanish, a_τ -tangensial tezlanish.
A) $a_n=0$, $a_\tau=0$. B) $a_n=0$, $a_\tau=const < 0$.
C) $a_n=const$, $a_\tau=0$. D) $a_n=0$, $a_\tau=const \leq 0$.
39. Fotoeffekt qizil chegarasini topish ifodasini ko'rsating. A-chiqish ishi, c-yorug'lik tezligi.
A) hA/c . B) hc/A . C) cA/h . D) h/cA .

40. O'tkazgichdan yasalgan halqadan tok o'tmoqda. Agar unga rasmda ko'rsatilgandek tok o'tayotgan ikkinchi halqa yaqinlashtirilsa, birinchi halqa markazidagi magnit induksiyasi qanday o'zgaradi?




- A) ortadi. B) avval ortib, keyin kamayadi.
C) kamayadi. D) o'zgarmaydi.

41. Dyulong Pti qonuniga asosan qattiq jismlarning molyar issiqlik sig'imi $3R$ ga tengligi ma'lum bo'lsa, alyuminiy uchun solishtirma issiqlik sig'imi nimaga teng bo'ladi (J/(kg·K))? Alyuminiyning molyar massasi 27 g/mol.
A) 1000. B) 923. C) 756. D) 823.
42. Vaqt o'tishi bilan psixrometrning quruq termometri ko'rsatishi o'zgarmay, nam termometrning ko'rsatishi

ortsa, nisbiy namlik qanday o'zgaradi?


- A) avval ortib, keyin kamayadi. B) o'zgarmaydi.
C) kamayadi. D) ortadi.

43. Uch atomli gaz dastlab adiabatik, so'ngra izobarik kengaydi. Ideal gazning boshlang'ich temperaturasi oxirgi temperaturasiga teng. Gaz to'liq kengayishda 20 kJ ish bajarilgan. Adiabatik kengayishda va izobarik kengayishda qancha ish bajarilgan (kJ)?



- A) 12,8; 8,7. B) 12,6; 8,4.
C) 15; 5. D) 12,4; 8,6.

44. Bir atomli gaz dastlab adiabatik, so'ngra izobarik kengaydi. Ideal gazning boshlang'ich temperaturasi oxirgi temperaturasiga teng. Gaz to'liq kengayishda 21 kJ ish bajarilgan. Izobarik kengayishda gaz qancha issiqlik olgan (kJ)?



- A) 14. B) 12,6. C) 16. D) 21.

45. Metan gazining modda miqdori 1 mol va harorati 100 K.

Uning hajmi 0,01 m³ dan 0,0272 m³ gacha izotermik oshdi. Metan molekularining bajarilgan ishini (J) toping?

- A) 1100. B) 1376. C) 831. D) 2176.

46. Lyuks qaysi kattalik birligi?

- A) yoritilganlik. B) yorqinlik.
C) yorug'lik kuchi. D) ravshanlik.


47. Qanday rangdagi ko'zga ko'rinuvchi nurlarning muhitdagi tezligi eng katta bo'ladi?

- A) binafsha. B) yashil.
C) ko'k. D) qizil.

48. Nima uchun benzin tashiydigan mashinalarda orqa qismida yerga tegib turadigan zanjiri bor?

- A) suyuqlik qatlamlari ishqalanganda hosil bo'lgan zaryad yerga o'tib ketadi.
B) barcha javoblar to'g'ri.
C) suyuqlik haroratini o'zgartirmaslik uchun.
D) chaqmoqdan saqlanish uchun.

49. Keltirilgan elektr zanjirdan foydalanib, K va L nuqtalar orasidagi umumiy qarshilik necha om bo'lishini aniqlang.



- A) 3. B) 4. C) 6. D) 2.

50. 200 g massali temir sharcha 2 m balandlikdan erkin tushdi. Uning pol bilan birinchi va ikkinchi urilishi orasidagi vaqt intervali 0,8 sekund bo'ldi. Birinchi urilish paytida qancha energiya (mJ) issiqlikka aylanadi? Havoning qarshilik kuchini hisobga olmang. $g=10$ N/kg.

- A) 1200. B) 1600. C) 2400. D) 1800.

51. Bochkadagi suvning balandligi h . Bochkaning eng pastki nuqtasidan kichik teshik ochildi. Suv sathi $h/2$ bo'lganda teshik orqali suv qanday tezlik bilan chiqadi?

- A) $\sqrt{2gh}$ B) \sqrt{gh}
C) $\sqrt{2h/g}$ D) $\sqrt{2g/h}$

52. Biror balandlikdan erkin tushayotgan jism 1,25 metr masofani o'tgach qiyaligi 30° bo'lgan qiya tekislik bilan noelastik to'qnashdi. To'qnashuv 0,1 s davom etgan bo'lsa, jismga ta'sir qiluvchi kuchni (N) toping. Jism massasi 2 kg. $g=10$ m/s².

- A) 100. B) 70. C) 50. D) 120.

53. Dastlab cho'zilmagan, bikrligi $k=30$ N/m bo'lgan prujinaga $m=420$ g yuk osib qo'yib yuborilganda A amplitudali garmonik tebranishlar yuzaga keldi. Yukning muvozanat vaziyatidan cho'zilishi x qanday bo'lganda tezlanishini 5,6 m/s² ni tashkil etadi?

- A) 0,78A. B) 0,56A. C) 0,5A. D) 0,22A.

54. Dastlab cho'zilmagan, bikrligi $k=146$ N/m bo'lgan prujinaga $m=146$ g yuk osib qo'yib yuborilganda A amplitudali garmonik tebranishlar yuzaga keldi. Prujina maksimal cho'zilganda yukning balandligi $h=0$ deb hisoblab, prujinaning potensial energiyasi maksimal bo'lgan paytda uning tezlanishi qanday bo'ladi (m/s²)?

- A) 5,4. B) 0. C) 9,8. D) 4,9.


55. Suvga limmo-lim to'ldirilgan tubida teshigi bor chelak vaznsiz ipga bog'langan holda, matematik mayatnik sifatida tebranmoqda. Uning boshlang'ich holdagi tebranish davri T_1 va undagi suvning yarmi qolgandan keyingi davri T_2 qanday munosabatda bo'ladi?

- A) $T_1 = T_2$. B) $T_1 < T_2$.
C) $T_1 \approx T_2$. D) $T_1 > T_2$.

56. Metallarni elektronlar oqimi bilan nurlantirganda undan elektronlarning chiqishi.... deb ataladi.

- A) fotoelektron emissiya.
B) ikkilamchi elektron emissiya.
C) avtoelektron emissiya.
D) termoelektron emissiya.

57. Rasmda qandaydir modda atomlar sonining vaqtga bog'liqlik grafigi keltirilgan. Shu grafikdan foydalanib, 6 sutka ichida qancha atom yemirilganini aniqlang.



- A) $14 \cdot 10^{20}$. B) $5 \cdot 10^{19}$.
C) $12 \cdot 10^{19}$. D) $12 \cdot 10^{20}$.

58. Uglerod atomidagi nuklonlar soni 12 ga teng va yadrosi teng miqdordagi proton va neytronlardan tashkil topgan. Agar ushbu atom uch karra musbat zaryadlansa, uning atomidagi elektronlar soni nechtaga teng bo'lib qoladi?

- A) 5. B) 6. C) 4. D) 3.

59. Vodorod atomidagi elektron birinchi energetik sathdan uchinchi energetik sathga o'tishi uchun qancha energiya nurlatadi?

- A) 0,85. B) 12,1.
C) nurlanmaydi. D) 3,4.

60. Uran $^{234}_{92}\text{U}$ izotopidagi bitta α va ikkita β yemirilishga uchriganidan so'ng yadrodag protonlar soni nechtaga teng bo'ladi?

- A) 76. B) 138. C) 92. D) 100.

ONA TILI VA ADABIYOTI

61. Qaysi qatorda tasviriy ifodalarning ma'nosi noto'g'ri berilgan?
A) kumush tola-paxta
B) traktor-dehqonning qanoti
C) matematika-aql gimnastikasi
D) neft-qora oltin
62. Noto'g'ri yozilgan so'zlar sonini toping.
xohlamoq, hijil, xaspo'shlamoq, shavqat, tamosha, avf, muzafot, taqazo
A) 6 B) 4 C) 3 D) 5
63. Omonlik tilasang, agar sen o'zing, Tilingdan chiqarma yaroqsiz so'zing. (Yu.X.Hojib) Ushbu baytdagi **tilasang** (a) hamda **chiqarma** (b) fe'llariga to'g'ri izoh berilgan javobni toping. 1) bo'lishli; 2) bo'lishsiz; 3) o'timli; 4) o'timsiz; 5) xabar mayli; 6) shart mayli; 7) buyruq-istak mayli; 8) tub so'z; 9) yasama so'z
A) a - 1, 3, 6, 8; b - 2, 3, 7, 8
B) a - 2, 4, 6, 8; b - 1, 3, 5, 9
C) a - 1, 3, 7, 9; b - 2, 4, 6, 8
D) a - 1, 4, 6, 9; b - 2, 3, 7, 9
64. Tarjimai hol, ishonchnoma, dalolatnoma Rasmiy uslubning qaysi turiga mansub?
A) idoraviy devonxona uslubi
B) sof tadbirkorlik uslubi
C) sof qonunchilik uslubi
D) diplomatik uslub
65. Nechta so'z to'g'ri yozilgan?
aboniment, avf, fortepiano, krepdeshin, koreys, intellektual, slavyan, talafot
A) 3 ta B) 7 ta C) 5 ta D) 8 ta
66. Bir necha ergash gapli qo'shma gap qismlari yozuvda qanday tinish belgilari bilan ajratiladi?
A) tire B) nuqtali vergul
C) ikki nuqta D) vergul
67. Qaysi bandeda berilgan gap shaxssiz gapning bir turi hisoblanmaydi?
A) Bolalikka buyuk ehtirom bilan qarash lozim.
B) - Qayerga ketyapsan?-Uyga.
C) Xo'p, o'rtoq shifokor!
D) Mana Hirot, Husayn Boyqaro saroyi.
68. Qaysi gapning kesimi faqat ohang bilan shakllangan?
A) Baxtli bo'lishing uchun, avvalo, unga o'zingni munosib aylashing kerak.
B) Sayraydi bog'da bulbul.
C) Samarqand -azim shahar.
D) Mustaqillik, sen yorug' kelajaksan.
69. **Ota-ona duosi o'tga, suvga botirmas.** Ushbu gapning kesimi qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan va kesimda nechta lab undoshi ishtirok etgan?
A) ot; 3 ta B) sifat; 2 ta
C) ravishdosh; 2 ta D) sifatdosh; 2 ta
70. Ibora bilan ifodalangan to'ldiruvchi qatnashgan gapni toping.
A) E'toqodsiz odamdan har qanday qabohatni kutsa bo'ladi
B) Kulganni kulib yengadi.
C) Yomonga yondashma, yaxshidan adashma
D) Men uning tepa sochi tikka bo'lishini kutmangan edim
71. Quyidagi gapda qo'llangan olmoshlar soni va turini aniqlang. - Noshukurlik, - debdi u, - noshukurlikning bexosiyat tomoni shundaki, bu ulla'tga o'ralgan kishi his etish, jamiyki narsadan lazzatlanish, bahramand bo'lish qobiliyatini yo'qotadi.
- A) 3 ta: 1 ta kishilik, 2 ta ko'rsatish
B) 4 ta: 1 ta kishilik, 2 ta ko'rsatish, 1 ta belgilash
C) 3 ta: 1 ta kishilik, 1 ta ko'rsatish, 1 ta belgilash
D) 4 ta: 3 ta ko'rsatish, 1 ta belgilash
72. O'zing ham bir meni, bir Sobirni yolg'onchi qilaverasan-da. Ushbu gap tarkibida nechta so'z birikmasi mavjud?
A) 1 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 4 ta
73. Izohlovchi taxallus va o'xshatish ma'nolarini bildirganda izohlovchi bilan izohlanmish o'rtasida qanday tinish belgisi qo'yiladi?
A) tire B) nuqtali vergul
C) vergul D) ikki nuqta
74. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinadi. Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Ushbu parcha «Davlat tili to'g'risida»gi Qonunning nechanchi moddasidan olingan?
A) 12-modda B) 8-modda
C) 9-modda D) 11-modda
75. Qaysi gapda vazifadosh bog'lovchi qo'shma gap qismlarini bog'lab kelgan?
A) Xalqqa xayr-u ehson qilish ulug' fazilat, biroq bu beg'araz bo'lsa yaxshi.
B) Mol-u puling ketsa-ketsin, ammo g'ururing ketmasin.
C) O'ylamoq yaxshi-yu, xayolparast bo'lish zararlidir.
D) Qilgan xatolaringni ko'z o'ngingda tut, lekin qilgan yaxshiliklaringni unut.
76. Qaysi javobda ko'makchi morfemalar so'z tarkibi tartibi bo'yicha joylashmagan?
A) maqtanchoq B) o'qiganimda
C) asrandi D) g'ururlanishdi
77. Qaysi gapdagi sodda yasama fe'l ko'chma ma'noda?
A) Dunyoda pok odamlar qancha ko'paysa, nopok odamlar shuncha kamayadi.
B) Opam hammamizni yaxshilab tuzladi.
C) Negadir domla uzoq vaqt gapni cho'zib turdi.
D) Bir-birimiz bilan eski qadrdonlardek suhbatlashdik.
78. Qaysi maqoldagi so'zlar tarkibida chuqur til orqa undoshlari ishtirok etmagan?
A) Sinamagan otning sirtidan o'tma!
B) Aybsiz do'st axtargan do'stsiz qolar.
C) O'ylamay qilingan ish, Boshga keltirar tashvish.
D) Maqtanma g'oz, hunaring oz!
79. Bo'g'iz undoshi bilan boshlanishi kerak bo'lgan so'zlarni aniqlang.
1. ...atti – harakat, 2. ...org'in, 3. ...urram, 4. ...adik
A) 1,3 B) 2,4 C) 2,3,4 D) 1,2,4
80. Qaysi qatorda takrorlash va juftlash orqali hosil bo'lgan yangi so'zlar berilgan?
A) tun-kun, sira-sira, erta-indin, el-u yurt
B) kirdi-chiqdi, birma-bir, aql-zakovat
C) savol-javob, bog'-rog', yugur-yugur
D) uzil-kesil, nari-beri, yildan yilga, o'z-o'zidan
81. Lekin kun isishini kutish haqida gap bo'lishi ham mumkin emas, chunki havoga ishonish qiyin, eng muhimi, qor ustiga qor yog'ib, dashtda qolib ketishlari ehtimoldan xoli emas. Ushbu gapda ishtirok etgan yordamchi so'zlarga mansub birliklar sonini toping.
A) 3 ta B) 2 ta C) 5 ta D) 4 ta
82. "Bilimli kishi o'lsa ham uning nomi o'chmaydi, ilmsiz

kishining o'zi hayot bo'lsa ham, oti o'likdir. Bilimlarning biri bilimsizning minggiga teng, ilmli kishilar ilmning qadriga yetadi". Ushbu parcha qaysi asardan?

- A) "Qutadg'u bilig" B) "Devonu lug'ot it-turk"
C) "Yatimat ad-dahr" D) "Hibatul -haqoyiq"

83. Hans Kristian Andersenning qaysi ertaklarida talqin jonli inson muhitiga yaqinlikda beriladi? 1. "Dyumchaxon", 2. "Bulbul", 3. "Qor malikasi", 4. "Suv parisi", 5. "Improvizator", 6. "Bronza to'ng'iz", 7. "Kumush tangacha"

- A) 1,3,4,6 B) 1,3,4,5,6
C) 1,2,3,4 D) 1,4,6,7

84. "Avesto"da qurbonlik qilinadigan joy nima deyiladi?

- A) Opoxtor B) Parastishgoh
C) Otashgoh D) Vendidod

85. Menga qilsa ming jafo, bir qatla faryod aylamom,
Elga qilsa bir jafo, ming qatla faryod aylaram, -degan shohbaytning mag'zida zamonasi muammolaridan ogohlik, xalq qismatidan qayg'urish hislari yotadi. Bu bayt kimning qalamiga mansub?

- A) A.Navoiy. B) Lutfiy.
C) Ogahiy. D) Bobur.

86. "Alpomish" dostonining nechta yozib olingan varianti bor?

- A) 100 dan ortiq B) 40 dan ortiq
C) 50 dan ortiq D) 30 dan ortiq

87. "Hech qayoqqa olib bormaydigan yo'l" ertagi qaysi turkumga kiradi?

- A) "Rim ertaklari"
B) "Rinaldoning sarguzashtlari"
C) "Uchtadan oxiri bor ertaklar"
D) "Telefonda aytilgan ertaklar"

88. Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" majmuasidan jami necha lirik janrga oid asarlar o'rin olgan?

- A) 15 B) 18 C) 16 D) 14

89. Ernest Seton Tompson qaysi kitobi uchun "Alanga medali" oltin mukofotini oladi?

- A) "Men bilan jonivorlar"
B) "Hayvonlar qahramonlari"
C) "SHimoliy hayvonlar hayoti"
D) "Yovvoyi hayvonlar hayoti"

90. Qaysi shoir "Doshhovli" tasviriga bag'ishlab g'azal yozgan?

- A) Ogahiy B) Uvaysiy
C) Xorazmiy D) Munis